IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

MALAYZIYADA DINIY BAG‘RIKENGLIK MODELI

Safarova Shahnoza
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Tarix” yo‘nalishi talabasi.

Ilmiy rahbar: **Go‘zal Sharipova**
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA”
kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Malayziyada diniy bag‘rikenglikning shakllanishi, uning huquqiy asoslari, davlat siyosati va jamiyat hayotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Malayziya ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat sifatida turli din vakillarining tinch-totuv yashashini ta’minlash borasida o‘ziga xos modelni yaratgan. Maqolada diniy bag‘rikenglikning asosiy tamoyillari, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan siyosat hamda ushbu modelning afzallik va muammolari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Malayziya, diniy bag‘rikenglik, islom, konfessiyalararo munosabatlar, Rukun Negara, millatlararo totuvlik, diniy xilma-xillik.

МОДЕЛЬ РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В МАЛАЙЗИИ

Аннотация. В данной статье анализируются особенности модели религиозной толерантности в Малайзии, её историческое развитие, правовые основы и роль в обеспечении общественной стабильности. Малайзия, являясь многонациональным и многоконфессиональным государством, сформировала уникальную систему межрелигиозного сосуществования, основанную на принципах взаимного уважения, свободы вероисповедания и сохранения ведущей роли ислама. Рассматриваются основные механизмы государственной политики в сфере межконфессиональных отношений, а также преимущества и существующие вызовы данной модели. Делается вывод о том, что малайзийский опыт представляет значительный интерес для изучения вопросов религиозной толерантности и общественного согласия в современных многообразных обществах.

Ключевые слова: Малайзия, религиозная толерантность, ислам, межконфессиональные отношения, Rukun Negara, национальное единство, религиозное разнообразие.

THE MODEL OF RELIGIOUS TOLERANCE IN MALAYSIA

Abstract. This article examines the model of religious tolerance in Malaysia, its historical development, legal foundations, and role in maintaining social stability. As a multiethnic and multireligious country, Malaysia has developed a unique framework for interfaith coexistence based on mutual respect, freedom of religion, and the recognition of Islam's central position in society. The study explores the main mechanisms of state policy in managing interreligious relations, as well as the strengths and challenges of this model. The article concludes that the Malaysian experience provides valuable insights into promoting religious tolerance and social harmony in diverse societies.

Keywords: Malaysia, religious tolerance, Islam, interfaith relations, Rukun Negara, national unity, religious diversity.

Kirish. Globallashuv sharoitida turli din va madaniyat vakillarining tinch-totuv yashashi har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Janubi-Sharqiy Osiyoda joylashgan Malayziya diniy va etnik jihatdan xilma-xil tarkibga ega bo‘lgan davlatlardan biridir. Mamlakat aholisining asosiy qismini musulmon malaylar tashkil etsa-da, buddaviylik, xristianlik, hinduizm, sikxizm va boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchi fuqarolar ham mavjud. Shu sababli diniy bag‘rikenglikni ta’minlash Malayziya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Shuningdek, bu hududda asrlar mobaynida turli dinlar birga yashab kelgan. Malay yarimorolida islom dini XV asrda Melaka sultanligi orqali tarqalgan bo‘lsa-da, buddizm, hinduizm va animistik e’tiqodlar bundan ancha oldin mavjud edi. Britaniya mustamlakachiligi davrida (XIX-XX asrlar) Xitoy va Hindistondan ishchi kuchi sifatida keltirilgan aholining joylashishi mamlakatning diniy mozaikasini yanada boyitdi. 1957-yilda mustaqillikka erishilganda, yangi davlat quruvchilari oldida muhim savol turardi, ya’ni turli din va irqlarni birlashtiruvchi milliy identitetni qanday shakllantirishlik kerakligi? Ushbu muammoning yechimi “ijtimoiy shartnoma” deb nomlanuvchi hujjat asosida tarkib topdi.

1969-yilda yuz bergan etnik nizolar Malayziya tarixida muhim burilish nuqtasi bo ’ldi. Ushbu voqealardan so‘ng hukumat millatlararo va dinlararo totuvlikni mustahkamlash maqsadida 1970-yilda Rukun Negara milliy mafkurasini qabul qildi. Uning asosiy tamoyillari orasida Xudoga ishonch, Konstitutsiyaga sadoqat, qonun ustuvorligi va odob-axloq me’yorlariga rioya qilish kabi qadriyatlar mavjud bo‘lib, ular diniy bag‘rikenglikning mustahkamlanishiga xizmat qildi.

XXI asr boshlarida hukumat tomonidan ilgari surilgan “Islam Hazari” va “Vasatiyyah” konsepsiyalari diniy bag‘rikenglikni yanada rivojlantirishga qaratildi. Ushbu yondashuvlar mo‘tadillik, o‘zaro hurmat, konfessiyalararo muloqot va tinch-totuv yashash tamoyillarini targ‘ib qildi. Natijada Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyodagi ko‘p konfessiyali jamiyatlarda diniy bag‘rikenglikni ta’minlashning o‘ziga xos modelini shakllantirdi.

Malayziyada diniy bag‘rikenglikning huquqiy asosi sifatida Konstitutsiyasining 3-moddasini keltirishimiz mumkin. Ushbu moddada islom dini federatsiyaning rasmiy dini sifatida belgilangan. Shu bilan birga konstitutsiya boshqa dinlarga e’tiqod qilish va ularni amalda erkin bajarish huquqini ham kafolatlaydi. Mamlakatning huquqiy tizimi diniy erkinlik va millatlararo hamjihatlik tamoyillariga asoslanadi.

Malayziya mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy birlikni mustahkamlash maqsadida 1970-yilda “Rukun Negara” milliy tamoyillarini qabul qilindi. Ushbu milliy mafkuraning asosiy tamoyillaridan biri diniy e’tiqodga hurmat bilan munosabatda bo‘lishdir. Rukun Negara fuqarolar o‘rtasida o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va milliy birdamlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Malayziya aholisi etnik va dini jihatdan rang-barang hisoblanadi. Malaylar asosan islom diniga e’tiqod qiladilar. Xitoy millatiga mansub fuqarolar orasida buddaviylik, daosizm va xristianlik keng tarqalgan. Hind jamoalari esa asosan hinduizmga amal qiladilar. Bundan tashqari, mamlakatda sikxlar, bahoiylar va mahalliy diniy an’analarga amal qiluvchi guruhlar ham mavjud. Ushbu xilma-xillik davlatdan barcha din vakillarining huquqlarini himoya qiluvchi muvozanatli siyosat yuritishni talab etadi.

Malayziyada diniy bag‘rikenglik modelining asosiy xususiyatlari quydagilar:

1. Islomning markaziy o‘rni va boshqa dinlarga hurmat. Malayziya modeli islomning davlat hayotidagi yetakchi mavqeini saqlab qolgan holda boshqa din vakillarining huquqlarini

ham kafolatlashga asoslanadi. Mamlakatda masjidlar bilan bir qatorda cherkovlar, ibodatxonalar va hindu ibodat maskanlari faoliyat yuritadi.

2. Davlat tomonidan muvofiqlashtirilgan diniy siyosat. Hukumat diniy masalalarni nazorat qilish va konfessiyalararo munosabatlarni tartibga solish orqali ijtimoiy barqarorlikni saqlashga intiladi. Turli diniy tashkilotlar davlat qonunlariga rioya qilgan holda faoliyat olib boradilar.

3. Ta'lim orqali bag'rikenglikni shakllantirish. Malayziya maktablari va oliy ta'lim muassasalarida milliy birlik, o'zaro hurmat va bag'rikenglik g'oyalari targ'ib qilinadi. Yosh avlodda turli din va madaniyatlarga nisbatan hurmat hissini shakllantirish davlat siyosatining muhim qismidir.

4. Madaniyatlararo muloqot. Malayziyada turli diniy bayramlar keng nishonlanadi. Musulmonlarning Ramazon hayiti va Qurbon hayiti, xitoylarning Yangi yili, hindlarning Deepavali bayrami hamda xristianlarning Rojdestvo bayrami davlat miqyosida e'tirof etiladi. Bu esa jamiyatdagi o'zaro hurmatni mustahkamlaydi.

Malayziyada amalga oshirilayotgan diniy bag'rikenglik siyosati mamlakatning siyosiy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Turli din vakillarining tinch-totuv yashashi xorijiy investitsiyalar va turizm rivojiga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, konfessiyalararo muloqotning rivojlanishi ijtimoiy nizolarni kamaytirishga yordam bermoqda. Shunga qaramay, Malayziyada ayrim diniy va etnik masalalar bo'yicha bahs-munozaralar ham uchrab turadi. Islomning konstitutsiyaviy maqomi, diniy konversiya masalalari va ayrim huquqiy cheklovlar ba'zan jamoatchilik muhokamalariga sabab bo'ladi. Biroq davlat ushbu masalalarni qonuniy va tinch yo'llar bilan hal etishga intilmoqda.

Xulosa. Malayziyaning diniy bag'rikenglik modeli ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatni boshqarishning o'ziga xos namunasi hisoblanadi. Ushbu model islomning davlatdagi yetakchi mavqeini saqlagan holda boshqa din vakillarining huquqlarini ham himoya qilishga qaratilgan. Konstitutsiyaviy kafolatlar, Rukun Negara tamoyillari, ta'lim tizimi va madaniyatlararo muloqot mexanizmlari mamlakatda diniy totuvlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu sababli Malayziya tajribasi diniy bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlikni ta'minlash masalalarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Federal Constitution of Malaysia. Kuala Lumpur, 2023.
2. Abdullah Ahmad Badawi. Islam Hadhari: A Model Approach for Development and Progress. Kuala Lumpur, 2006.
3. Shamsul A.B. Islam and Ethnicity in Malay Politics. Kuala Lumpur, 2008.
4. Syed Husin Ali. Ethnic Relations in Malaysia: Harmony and Conflict. Kuala Lumpur, 2015.
5. Means G.P. Malaysia: Politics and Government. Singapore, 2014.
6. Milner A. The Malays. Oxford: Wiley-Blackwell, 2011.
7. Hooker M.B. Islam in Southeast Asia. Leiden: Brill, 2003.
8. Ibrahim A. Multiculturalism and Religious Harmony in Malaysia. Kuala Lumpur, 2018.
9. Osman Bakar. Islam and Civilizational Dialogue. Kuala Lumpur, 1997.
10. Chandra Muzaffar. Rights, Religion and Reform in Malaysia. Petaling Jaya, 2002.